

BOLALAR IJODIY ISHLARI TANLOVI TO‘G‘RISIDA NIZOM

**“O‘z bog‘ingni o‘stir”
(maktab dasturi “Salomatlik yo‘nalishlari” doirasida)**

E'lon qilinadi
Bolalar plakatlari tanlovi
“O‘z bog‘ingni o‘stir”

Tanlov Tashkilotchilari:

- O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi
- XK MChJ “Nestlé Food”

Tanlov „Salomatlik yo‘nalishlari“ maktab dasturi doirasida o‘tkaziladi (Nestlé for Healthier Kids kompaniyasining global tashabbusining bir qismi)

1. Umumiy qoidalar.

Mazkur „O‘z bog‘ingni yetishtir“ bolalar plakatlari tanlovi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda — „Tanlov“) Tanlovning maqsad va vazifalarini, uni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi, Tanlovga taqdim etiladigan materiallarga qo‘yiladigan talablarni, ularni baholash mezonlarini hamda g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash tartibini o‘rnatadi.

2. Tanlovning maqsad va vazifalari.

2.1. Tanlovning maqsadi: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish, atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlikning bir qismi ekanligini tushunishlarini ta’minlash.

2.2. Tanlovning vazifalari:

- Bolalarda atrof-muhit inson salomatligiga qanday ta’sir qilishi, nima uchun atrof-muhitni asrash muhim ekanligi haqida tasavvurni shakllantirishga ko‘maklashish
- Bolalarda tabiatni muhofaza qilish faoliyatida qanday ishtirok etishlari mumkinligi haqidagi tasavvurni rivojlantirish, ularni kundalik hayotda tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish qoidalariga rioya qilishga undash
- Bolalarda ijodiy ko‘nikmalarni, atrof-dagilar (kattalar, tengdoshlar) bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish
- Bolalarda turli axborot manbalari bilan ishlash, zarur ma’lumotni topish, uni tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish.

3. Tanlov ishtirokchilari

3.1. Tanlovda pedagog rahbarligida sinflar ishtirok etishi mumkin. Yosh toifasi: 7–11 yosh.

4. Tanlov shartlari

4.1. Ishni tanlovga taqdim etish ommaviy oferta (Nizom shartlari)ni qabul qilish hisoblanadi.

4.2. Tanlovga tabiatni muhofaza qilish faoliyatining istalgan jihatiga, shuningdek o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish va atrof-muhitga g‘amxo‘rlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka bag‘ishlangan plakatlar (keyingi o‘rinlarda - „Ishlar“) qabul qilinadi (tabiiy resurslarga g‘amxo‘rlik, kundalik hayotda ekologik xulq-atvor, tabiatga beparvo munosabatning inson salomatligiga oqibatlarini, tabiatni muhofaza qilish faoliyatida ishtirok etish usullari va boshqalar).

4.3. Tanlovda ishtirok etar ekan, Ishtirokchilar va ularning qonuniy vakillari taqdim etilgan ishlar Tanlov tashkilotchilari tomonidan maxsus pedagogik nashrlarda, internet tarmog'ida joylashtirishi, metodik to'plamlar tayyorlashda, ochiq tadbirlarda namoyish etilishi, dasturga oid taqdimot va boshqa materiallarga kiritilishi mumkinligiga qo'shimcha roziliksiz, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida (butun dunyo bo'ylab), hech qanday mukofot to'lanmasdan, shu jumladan anonim tarzda (muallif nomi ko'rsatilmagan) foydalanilishiga rozilik bildiradilar.

4.4. Ishtirokchilar, shuningdek ularning qonuniy vakillari, taqdim etilgan ishlar shaxsan o'zlari tomonidan yaratilganini, avval nusxa ko'paytirilmaganini, sotish yoki boshqa tarzda begonalashtirish yo'li bilan tarqatilmaganini, ommaga namoyish etilmaganini va umumiy foydalanishga taqdim etilmaganini kafolatlaydilar. Ushbu materiallarga bo'lgan huquqlar boshqa shaxslarga o'tkazilmagan va garovga qo'yilmagan.

4.5. Ishtirokchilar, shuningdek ularning qonuniy vakillari, taqdim etilgan ishlar boshqa qonun bilan himoyalangan asarlarning noqonuniy qayta ishlanishi natijasi emasligini kafolatlaydilar.

4.6. Ishtirokchilar, shuningdek ularning qonuniy vakillari, taqdim etilgan ishlar uchinchi shaxslarning mualliflik huquqlari va boshqa intellektual mulk huquqlarini buzmasligini kafolatlaydilar. Agar uchinchi shaxslar tomonidan Tanlov tashkilotchisiga taqdim etilgan materiallardan foydalanish yuzasidan da'volar bildirilsa, Ishtirokchilar bunday da'volarni mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan hal etish majburiyatini oladilar.

5. Tanlovni o'tkazish tartibi.

Tanlov 16.03.2026 yildan 30.04.2026 yilgacha o'tkaziladi, shu jumladan yakuniy natijalarni chiqarish va e'lon qilish muddatlari.

Ishlarni qabul qilish – 16.03.2026 – 29.04.2026 yil.

Bolalar ishlarini tayyorlaydi. Pedagog ishni <https://prav-pit.uz/> saytiga yuklaydi.

Ishlarga ovoz berish – 16.03.2026 – 29.04.2026

Saytning istalgan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari ishtirokchilarning ishlariga "layk" qo'yish orqali ovoz berishi mumkin. Har bir ishga faqat bir marta ovoz berish mumkin. Foydalanuvchi jami 3 ta "layk" bera oladi.

30.04.2026 yildan boshlab g'oliblar va laureatlarga sovg'alar hamda diplomlar yuboriladi.

6. Tanlov ishlariga qo'yiladigan talablar:

6.1. Ish tabiatni muhofaza qilish faoliyatining istalgan jihatiga bag'ishlangan plakat bo'lib, tabiatga g'amxo'rlik qilish va o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik o'rtasidagi bog'liqlikni namoyish etishi kerak. Plakat sarlavhadan – tabiatni muhofaza qilishga chaqiruvchi iboradan va chizmadan iborat bo'lishi lozim.

6.2. Ish istalgan tasviriy texnikada bajarilishi mumkin – grafika, akvarel, pastel va hokazo.

6.3. Ishda quyidagilar bo'lishi kerak: maktab raqami, sinf, shahar va pedagogning FIOsi (imzo plakatning o'ng pastki burchagida joylashtiriladi).

6.4. Ishning skaner nusxasi yoki fotosurati pedagog tomonidan <https://prav-pit.uz/> saytiga yuklanadi.

6.5. Belgilangan talablarga javob bermaydigan ishlar tanlovga qabul qilinmaydi.

7. Ishtirokchilarni rag‘batlantirish

7.1. Juri baholashiga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan uchta sinf G‘oliblar Diplomi va maktab hududida ekish uchun daraxt ko‘chatlari bilan taqdirlanadi.

7.2. Sinfning tanlovda ishtiroki, g‘alaba holatida maktab hududida ko‘chat ekish bo‘yicha ta‘lim muassasasi ma‘muriyatining oldindan roziligi mavjudligini talab qiladi.

7.3. G‘oliblardan keyin eng yuqori ball to‘plagan beshta sinf Laureat Diplomi va qiymati 5 BRV dan oshmagan sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

7.4. Eng ko‘p layk olgan bitta sinf qiymati 5 BRV dan oshmagan sovg‘alarni oladi.

7.5. Tashkilotchi ishtirokchini “Prizolov” deb hisoblagan hollarda Tanlovdan chiqarish huquqiga ega. Mazkur qoidalarga muvofiq “Prizolov” atamasi quyidagi harakatlarni amalga oshirgan shaxsni bildiradi (shu bilan cheklanmaydi):

- tanlov saytida bir nechta hisob qaydnomalari orqali ishtirok etish;
- tanlov saytida noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma‘lumotlar kiritish, tashkilotchiga ushbu ma‘lumotlarni tasdiqlovchi hujjat va ma‘lumotlarni taqdim etmaslik;
- qoidalarga muvofiq taqiqlangan turdagi harakatlarni¹ amalga oshirish;
- turli aksiyalar, tanlovlar, reklama tadbirlarida ishtirok etish orqali doimiy moddiy foyda olishga qaratilgan faoliyatni olib borish;
- tashkilotchi yuqoridagi mezonlarga to‘g‘ri kelmagan boshqa shaxsni ham „Prizolov“ deb hisoblash huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7.6. Sovg‘alarni tanlash Tashkilotchilarning ixtiyorida.

7.7. Laureat sovg‘a olganda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (o‘zining yoki qonuniy vakilining)ni taqdim etishi shart.

7.8. G‘oliblarni taqdirlash muddati – 30.04.2026 – 12.05.2026, ko‘chatlarni yetkazib berish bundan mustasno. Ko‘chatlarni taqdim etish muddati g‘oliblar bilan oldindan kelishiladi, mintaqaning iqlim xususiyatlari hisobga olinadi.

8. Qo‘shimcha shartlar

8.1. Tashkilotchilar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq istalgan vaqtda butun Tanlov yoki uning bir qismini bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

8.2. Mazkur Nizomning har qanday shartini buzgan ishtirokchi rag‘batlantirish huquqidan mahrum qilinadi va Tanlovdan chiqariladi.

8.3. Ko‘chatlar maktablarga qabul-tasdiqlash aktiga muvofiq topshiriladi.

¹Harakatlarni sun‘iy oshirish (nakrutka) — bu tanlov qoidalarida ruxsat etilgandan ko‘ra, bitta kompyuterdan ko‘proq harakatlar amalga oshirishga imkon beruvchi usullar (dinamik IP-manzillardan foydalanish va cookie fayllarni tozalash, haqiqiy IP-manzilni yashirish, bloklangan/faol bo‘lmagan internet foydalanuvchilaridan foydalanish hamda boshqa turdagi nakrutka usullari taqiqlanadi). Tashkilotchi o‘zining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, Harakatlarni sun‘iy oshirish mavjud yoki mavjud emasligini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Bolalar loyihalari tanloviga taqdim etilgan ishlarni baholash mezonlari

Tanlovga taqdim etilgan ishlar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- 1. Ish g'oyasining dolzarbligi: ish mazmunining tanlov mavzusiga mosligi – 5 ballgacha**
- 2. Ta'qdimotning originalligi:**
 - Qiziqarli, jalb etuvchi syujet – 5 ballgacha
 - Ta'qdimotning original shakli – 5 ballgacha
- 3. Materialni taqdim etish shakli**
 - Ijroning tozaligi va aniqligi (5 ballgacha)